

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

KOMPRESSLARNI ORGANIZMGA TAS’IRI

*Xiva Abu Ali ibn Sino nomli
jamoat salomatligi texnikumi
“Reabiltatsiya ishi” fani Bosh o’qituvchisi
Matmuratova Durdona*

Annotatsiya: *Fizioterapiya - bu fizioterapevtlar tomonidan bemorlarning hayoti davomida tananing maksimal harakat erkinligini va funksionalligini rivojlantirish, saqlash va tiklash maqsadida ko'rsatiladigan xizmatlardir. Fizioterapiya xizmatlari qarilik oqibatida, shikastlanishlarda, og'riqlarda, turli xil kasalliklarda, buzilish, holat yoki atrof-muhit omillari natijasida tananing funksionalligi va harakatchanligi buzilgan hollarda, to'liq funksional harakat sog'liqning eng muhim omili ekanligini tushungan holda taqdim etiladi.*

Kalit so'zi: *kompres, organism, quruq va nam, issiq va sovuq, mahalliy va umumiy, nam kompreslar mavjud.*

KIRISH

Kompres (lotincha: compressus — qisilgan) — shifo maqsadida qo'yilgan issiq yoki sovuq boylam. Ogrigan a'zoni sovqotishdan va boshqa tashqi ta'sirotlardan himoya qilish uchun bir necha qavat doka yoki qalin paxta qatlamdan iborat quruq Kompresdan foydalaniladi. Shifobaxsh ta'sir ko'rsatish maqsadida nam Kompres qo'llanadi. Bu Kompresning sovuq, qaynoq, issiq va dorili xillari bo'ladi. Shifokor buyurgan Kompresni bemorning o'zi yoki unga qaraydigan odam qo'yishi mumkin. Kompresning qanchalik davomliligi uning qanday qo'yilishiga bog'liq.

Sovuq Kompres (bir bo'lak yumshoq matoni bir necha qavat qilib sovuq suvga bo'ktirib olinadi) ma'lum bir joyni sovitib, qon tomirlarini toraytiradi; uni lat yeganda, burun konaganda gavdaning kasal qismiga (bosh, qo'l, oyoq va boshqa joylarga) qisqa muddat (2—3 min.) qo'yiladi.

Issiq Kompres qon tomirlarini uzoq, vaqt davomida kengaytirib, teri va chuqurroqdagi to'qimalarga qon oqib kelishini yaxshilaydi, natijada yallig'lanish o'chog'i tez yo'qolib, ogriq qoladi. Bir necha qavat qilib taxlangan doka yoki matoni oldindan uy temperaturasidagi suvga bo'ktirib olib, yaxshilab siqib, kasal joyga qo'yiladi, ustidan kleyonka yoki suv o'tkazmaydigan qog'oz yopiladi (kleyonka yoki qog'oz ancha katta bo'lishi va nam matoni berkitib turishi kerak), uning ustidan kattaroq paxta yoki flanel (Kompres ostida hosil bo'lgan issiqlikni saqlab turish uchun) o'raladi. Kompres to'g'ri qo'yilgan bo'lsa, tanaga tegib turgan mato Kompres olinganda iliq va nam bo'ladi. Kompres aksari kechqurun, uxlashdan oldin qo'yiladi. Kompres tananing katta joyiga (mas, ko'krak qafasiga) qo'yiladigan bo'lsa, bemor o'rinda yotishi lozim. Ba'zan suvli isitadigan Kompres o'rniga arokli yoki spirtli Kompres qo'llanadi. Bunday Kompres tez

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

qurib qoladi, shuning uchun tez-tez almashtirib turiladi. Dorili K. isitadigan K.ning ayni o‘zi, bunda K. ta’sirini kuchaytirish uchun suvga vrach buyurgan turli xil dori moddalar qo‘shiladi. Kompres noto‘g‘ri qo‘yilganda ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun Kompresni o‘z bilgicha, vrach maslahatisiz qo‘ymaslik kerak.

Dolzarbligi.Hazirgi kunda kompresslarda juda ko‘p foydalanib kelinmoqda ,misol uchun sovuq compress vazifasiga ko‘ra muzli haltachaga o‘hshaydi farqi shundaki sovuq compress mahalliy tas’ir ko’rsatadi.